



CANADA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION



23 MARCH
2025 YEAR

CANADA, OTTAWA



A photograph of the Ottawa skyline, featuring the CN Tower and several modern glass skyscrapers along the waterfront. The water is blue, and a small boat is visible in the foreground.



**INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND
RESEARCH IN EDUCATION**
International scientific-online conference

**Part 37
March 23rd
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

CANADA 2025

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2025) – Canada, Ottawa : "CESS", 2025. Part 37–279 p.

Chief editor:

Candra zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, казакша, o'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերէն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference

"INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION".
Which took place in Ottawa on March 23, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2025
© Authors, 2025

Mamatmusayeva Gulzodaxon <i>GIRIPP KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI, ASORATLARI VA DAVOLASH PROFILAKTIKASI</i>	
Jalolova Mohigul Odiljon qizi <i>STUDYING THE IMPACT OF "FAMILY ROLES" DISTRIBUTION ON FAMILY STABILITY IN THE FIELD OF SOCIAL PSYCHOLOGY</i>	315
Jumanazarova Aygul Kaypnazar qizi <i>THE IMPACT OF TECHNOLOGY ON STUDENT ENGAGEMENT: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES</i>	318
Karabayeva Munisa To'liqin qizi <i>FOSTERING CRITICAL THINKING IN THE DIGITAL AGE: THE ROLE OF MODERN PEDAGOGY IN SHAPING FUTURE LEARNERS</i>	321
Bekmirzayeva Gulira'no Akbarali qizi Saitmatoba Diyora Baxtiyor qizi Baxtiyorova Jasmina Baxtiyorovna Axmadova Madinabonu Alisher qizi <i>BCHADONTUZULISHI VA UNING ANOMALIYALARI</i>	325
Ramazonova Farida Otabek qizi Raxmatullayeva Feruza Mubinovna <i>RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI</i>	328
Muhammadov Jaloliddin Mustafo o'g'li Giyazov Baxodir Bayazovich <i>RAQAMLI IQTISODIYOT VA AN'ANAVIY IQTISODIYOTNING O'ZARO TA'SIRI</i>	336
Ikromova Manzura Alisherovna Abdullaeva Hilola Nutfulloevna <i>RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI</i>	343
Karimov Umidjon Rasul o'g'li Giyazova Nozima Bayazovna <i>KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI</i>	350
Нурумбетова Садокат Аллаяровна <i>ЭКСТРЕМИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ТАКТИК ЁНДАШУВЛАР</i>	357

RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Ikromova Manzura Alisherovna*Buxoro davlat universiteti**Iqtisodiyot va turizm fakulteti**3-bosqich talabasi***Abdullaeva Hilola Nutfulloevna***Buxoro davlat universiteti**Iqtisodiyot va turizm fakulteti**Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli valyutalarning mohiyati, afzalliklari va kamchiliklari batafsil yoritilgan. Raqamli valyutalarning zamonaviy iqtisodiyotga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Shuningdek, markaziy banklarning raqamli valyutalari (CBDC) haqidagi ma'lumotlar va global tendensiyalar keltirilgan. Ushbu mavzu iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishida raqamli valyutalarning ahamiyatini tushunish uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Raqamli valyuta, kriptovalyuta, iqtisodiyot, blockchain, CBDC, moliyaviy tizim, innovatsiya, regulyatsiya, markaziy bank.

Аннотация: В данной статье подробно раскрыта сущность цифровых валют, их преимущества и недостатки. Анализируются положительные и отрицательные воздействия цифровых валют на современную экономику. Также приводится информация о цифровых валютах центральных банков (CBDC) и глобальных тенденциях. Эта тема важна для понимания значимости цифровых валют в будущем развитии экономики.

Ключевые слова: Цифровая валюта, криптовалюта, экономика, блокчейн, CBDC, финансовая система, инновации, регулирование, центральный банк.

Annotation: This article provides a detailed overview of the essence of digital currencies, their advantages, and disadvantages. It analyzes the positive and negative impacts of digital currencies on the modern economy. Information about central bank digital currencies (CBDC) and global trends is also presented. This topic is essential for understanding the significance of digital currencies in the future development of the economy.

Keywords: Digital currency, cryptocurrency, economy, blockchain, CBDC, financial system, innovation, regulation, central bank.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi global iqtisodiyotga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jarayonda raqamli valyutalar zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylanib, pul muomalasi va iqtisodiy tranzaksiyalarni tubdan

o'zgartirmoqda. An'anaviy naqd va naqd pulsiz hisob-kitob vositalaridan farqli o'laroq, raqamli valyutalar markazlashgan yoki markazlashmagan tizim asosida faoliyat yuritib, iqtisodiyotning turli segmentlariga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli valyutalar, keng ma'noda, markaziy banklar tomonidan chiqariladigan raqamli valyutalar (CBDC), blokcheyn asosidagi kriptovalyutalar va stablecoin kabi turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ularning har biri iqtisodiy rivojlanishga o'ziga xos mexanizmlar orqali ta'sir qiladi. Masalan, CBDC monetar siyosatning samaradorligini oshirish va bank tizimini modernizatsiya qilish imkonini berishi mumkin, kriptovalyutalar esa markazlashmagan moliyaviy ekotizimni rivojlantirishga turtki bo'lmoqda.

Raqamli valyutalarning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgan bo'lsa-da, ularning ommaviylashuvi bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Raqamli aktivlar bozori hali to'liq tartibga solinmaganligi, ularning barqarorligi va nazorat mexanizmlari bo'yicha savollar ochiq qolmoqda. Shu sababli, dunyo davlatlari raqamli valyutalarni rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha muvozanatli strategiyalar ishlab chiqishga harakat qilmoqda.

So'nggi yillarda dunyo moliyaviy tizimida katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. An'anaviy naqd va elektron pullardan tashqari, raqamli valyutalar ham jadal rivojlanib, global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular to'lov tizimlarini tezlashtirish, tranzaksiyalar narxini pasaytirish va moliyaviy xizmatlarning qulayligini oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Raqamli valyutalar faqat elektron shaklda mavjud bo'lib, ularning ba'zilar an'anaviy valyutalar bilan bog'langan bo'lsa, boshqalari butunlay mustaqil va markazlashmagan tizim asosida ishlaydi. Ushbu yangi moliyaviy vositalar butun dunyo bo'ylab to'lov tizimlarini tezlashtirish, xalqaro savdoda qulaylik yaratish va tranzaksiyalar xarajatlarini kamaytirish imkoniyatini taqdim etmoqda. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyasi asosida yaratilgan Bitcoin, Ethereum kabi kriptovalyutalar an'anaviy bank tizimiga muqobil sifatida ko'rilmogda.

1-jadval

Raqamli valyuta

Afzalliklari	Kamchiliklari va xavflari
1. Moliyaviy tranzaksiyalarni tezlashtirish: An'anaviy bank tizimlari bilan solishtirganda, raqamli valyutalar orqali operatsiyalar tezroq amalga oshiriladi. 2. Xarajatlarni kamaytirish: Tranzaksiyalar uchun xizmat haqlari pastroq bo'lishi mumkin, bu esa tijorat sub'yektlari uchun moliyaviy samaradorlikni oshiradi.	1. Barqarorlik masalasi: Raqamli valyutalarning qiymati yuqori volatillik bilan xarakterlanadi, bu esa ularni moliyaviy aktiv sifatida xavfli qiladi. 2. Regulyatsiya etishmovchiligi: Ko'plab davlatlarda raqamli valyutalar huquqiy jihatdan tartibga solinmagan, bu esa noqonuniy faoliyatlar uchun foydalanish xavfini

3. Xalqaro savdoda qulaylik: Raqamli valyutalar xalqaro tranzaktsiyalarni amalga oshirishda osonlik yaratadi va valyuta almashinuvidagi muammolarni kamaytiradi. 4. Moliyaviy inklyuziya: Bank xizmatlaridan foydalana olmaydigan aholiga ham moliyaviy tizimdan foydalanish imkonini beradi. 5. Ochiqlik va kuzatuvchanlik: Blockchain texnologiyasi tufayli barcha tranzaktsiyalarni kuzatish va tasdiqlash imkoniyati mavjud.	oshiradi. 3. Texnologik xatarlar: Xakerlik hujumlari va texnik nosozliklar raqamli valyutalarning xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin. 4. Energiya sarfi: Ayniqsa, Bitcoin kabi kriptovalyutalar qazib olish jarayonida katta energiya sarfini talab qiladi. 5. Raqamli tafovut: Texnologik infratuzilma rivojlanmagan hududlarda raqamli valyutalardan foydalanish qiyin.
---	--

Manba:Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Raqamli valyutalarning afzalliklari va kamchiliklari ularning xususiyatlari bilan bog'liq bo'lsa, ijobiy va salbiy ta'sirlari esa jamiyat, iqtisodiyot va moliyaviy tizimga qanday ta'sir qilishini anglatadi. Shuning uchun, ular o'xshash bo'lishi mumkin, lekin har doim ham aynan bir xil emas.

Raqamli valyutalar iqtisodiy jarayonlarga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin:

Ijobiy ta'sirlar

🚦 Innovatsion rivojlanish: Raqamli texnologiyalar va moliyaviy xizmatlarning integratsiyasi yangi imkoniyatlarni yaratadi.

🚦 Moliyaviy tizimning samaradorligini oshirish: Xarajatlarning kamayishi va tezkor tranzaktsiyalar tufayli moliyaviy tizimning samaradorligi oshadi.

🚦 Soliq yig'implarining oshishi: Kuzatuvchanlik tufayli noqonuniy tranzaktsiyalar qisqarishi va soliqlarning oshishi mumkin.

🚦 Startaplar va biznes uchun imkoniyatlar: Raqamli valyutalar yordamida yangi loyihalar moliyalashtiriladi va tijorat faoliyatlari rivojlanadi.

Salbiy ta'sirlar

🚦 Moliyaviy barqarorlikka xavf: Kriptovalyutalarning yuqori volatilligi iqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin.

🚦 Ish o'rinlariga ta'sir: Bank tizimining avtomatlashtirilishi ayrim sohalarda ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

🚦 Moliyaviy jinoyatlar xavfi: Raqamli valyutalar orqali noqonuniy faoliyatlar amalga oshirilishi mumkin, masalan, pul yuvish va firibgarlik.

O'zbekistonda kriptovalyutalar to'lov vositasi sifatida qonunan taqiqlangan. Ammo 2018-yilda prezident farmoni bilan kripto-aktivlar bilan bog'liq faoliyat

(ayirboshlash, savdo va mayning) alohida tartibga solina boshlandi. 2022-yilda esa "Kripto-aktivlar aylanmasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilindi. O'zbekistonda Milliy perspektiv loyihalar agentligi orqali kripto-birjalarga litsenziya berish tizimi joriy etilgan. Hozirda UZNEX nomli rasmiy litsenziyaga ega birja faoliyat yuritadi. Mayning faoliyati alohida tartibga solingan bo'lib, faqat yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tib, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish sharti bilan shug'ullanishlari mumkin.

2-jadval

O'zbekiston so'miga nisbatan 5 ta raqamli valyuta qiymatlari

Kriptoalyutalar	Qiymati (so'mda)
Bitecoin (BTC)	1 BTC= 88 947 910
Etherium (ETH)	1 ETH= 5 946 000
Litecoin (LTC)	1 LTC= 1 184 000
Binance coin (BNB)	1 BNB= 1 478 000
Dogecoin (DOGE)	1 DOGE= 76, 34

Manba:Muallif tomonidan bajarilgan.

Raqamli valyutalar (kriptoalyutalar) an'anaviy pullardan farqli ravishda markaziy bank yoki hukumat tomonidan chiqarilmaydi. Ularning qiymati bir nechta omillar asosida shakllanadi. Raqamli valyutalarning qiymati bozordagi talab, cheklangan taklif, texnologik rivojlanish va qonunchilikka bog'liq. Ularning narxi tez o'zgarishi mumkin, shuning uchun investitsiya qilishdan oldin tavakkalchilikni hisobga olish muhimdir.

Raqamli valyutalar turli shakllarda mavjud bo'lib, ularning eng mashhurlari – kriptoalyutalar, markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) va stablkoinlar hisoblanadi. Bitcoin va Ethereum kabi kriptoalyutalar markazlashmagan tizimlar asosida ishlaydi, CBDC esa davlat tomonidan nazorat qilinadigan valyuta bo'lib, an'anaviy pul birligining raqamli shakli hisoblanadi. Stablkoinlar esa qiymati AQSh dollari yoki boshqa real aktivlarga bog'langan bo'lib, bozordagi keskin tebranishlarning oldini olishga mo'ljallangan. Dunyodagi ko'plab davlatlar o'zining raqamli valyutasini joriy etish ustida ish olib bormoqda. Masalan, Xitoy allaqachon Raqamli Yuan (e-CNY) ni sinovdan o'tkazmoqda, Yevropa Ittifoqi raqamli yevro ustida ishlamoqda, AQSh esa raqamli dollar bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Ushbu jarayon global moliyaviy tizimni tubdan o'zgartirishi va tranzaksiyalarni tez, xavfsiz hamda qulay qilishga yordam berishi mumkin. Bank kartalari, mobil to'lov tizimlari va elektron hamyonlar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda raqamli valyutalar yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va davlatlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy tizimni takomillashtirish va raqamli iqtisodiyotga moslashish uchun yangi valyuta tizimlarini joriy etishga harakat qilmoqda.

Raqamli valyutalar zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat an'anaviy moliyaviy tizimlarga muqobil yechim sifatida, balki iqtisodiy faollikni oshirish, tranzaksiyalar tezligi va shaffofligini ta'minlash vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Markaziy banklar tomonidan chiqariladigan raqamli valyutalar (CBDC) pul-kredit siyosatini yanada samarali yuritishga xizmat qilsa, kriptovalyutalar va stablecoin'lar global moliyaviy integratsiya hamda investitsion muhitga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shu bilan birga, raqamli valyutalarning iqtisodiyotga ta'siri murakkab va ko'p qirrali. Bir tomondan, ular to'lov tizimlarining samaradorligini oshirishi, moliyaviy inkluzivlikni kuchaytirishi va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi mumkin. Boshqa tomondan, ular makroiqtisodiy barqarorlik, nazorat va tartibga solish muammolarini yuzaga keltirishi ehtimoli ham mavjud. Shuningdek, raqamli valyutalarning jadal rivojlanishi davlatlarning monetar siyosatiga ham ta'sir ko'rsatib, an'anaviy bank tizimining transformatsiyasini tezlashtirishi mumkin.

Raqamli valyutalar zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular nafaqat an'anaviy moliyaviy tizimlarga muqobil yechim sifatida, balki iqtisodiy faollikni oshirish, tranzaksiyalar tezligi va shaffofligini ta'minlash vositasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Markaziy banklar tomonidan chiqariladigan raqamli valyutalar (CBDC) pul-kredit siyosatini yanada samarali yuritishga xizmat qilsa, kriptovalyutalar va stablecoin'lar global moliyaviy integratsiya hamda investitsion muhitga yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Raqamli valyutalar ushbu jarayonni soddalashtirib, davlatlar o'rtasidagi savdo va moliyaviy operatsiyalarni tezlashtiradi. Ayniqsa, stabilkoinlar xalqaro to'lov tizimlarida barqaror vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Biroq, raqamli valyutalar rivojlanishi natijasida an'anaviy bank tizimlariga ta'sir qiluvchi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Markaziy banklar tomonidan chiqariladigan raqamli valyutalar aholi va korxonalar tomonidan keng qo'llanila boshlasa, tijorat banklarining roli kamayishi mumkin. Bu esa an'anaviy bank tizimining moliyaviy vositachilik funksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli bor. Shu sababli, raqamli valyutalarni joriy etish bo'yicha har bir mamlakat aniq strategik reja ishlab chiqishi kerak. Yana bir muhim jihat – raqamli valyutalarning inflyatsiyaga ta'siri. Markaziy banklar an'anaviy valyutalarni chiqarishda pul-kredit siyosatini hisobga oladi, ammo raqamli valyutalarning ortib borishi pul massasiga qanday ta'sir qilishi haqida hali aniq prognoz yo'q. Agar raqamli valyutalar haddan tashqari ko'payib ketsa, bu inflyatsiya darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, hukumatlar ushbu valyutalarni joriy etishda iqtisodiy barqarorlikni saqlashga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Shuningdek, raqamli valyutalarning ekologik jihatdan ta'siri ham muhim masala bo'lib qolmoqda. Kriptovalyutalar qazib olish (mining) jarayoni katta energiya sarfini talab qiladi, bu esa global iqlim o'zgarishlariga hissa qo'shishi mumkin. Ayniqsa, Bitcoin tarmog'ining ishlashi uchun katta miqdorda elektr energiyasi kerak bo'lishi, ekologik muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, kriptovalyuta maydonida ekologik jihatdan qulay texnologiyalarni ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kelajakda raqamli valyutalarning rivojlanishi moliyaviy tizimda yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, muayyan xavf-xatarlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, davlatlar, moliyaviy institutlar va xalqaro tashkilotlar raqamli valyutalarning barqaror ishlashi va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishi zarur. Umuman olganda, raqamli valyutalar moliyaviy innovatsiyalar ichida eng muhim o'zgarishlardan biri bo'lib, kelajakda ularning qo'llanilishi yanada kengayishi kutilmoqda. Agar bu jarayon to'g'ri boshqarilsa, raqamli valyutalar dunyo iqtisodiyotini yanada samarali, tezkor va inklyuziv qilishga yordam beradi. Shu bois, mamlakatlar ushbu yangi moliyaviy vositaning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur tahlil qilib, uni iqtisodiy rivojlanish manfaatlariga mos ravishda joriy etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREAZING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh,B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO 'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
9. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.

10. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
11. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11, 136-143.
12. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
13. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Indexing, 1(1).
14. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(34), 496-502.
15. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
16. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System.
17. World Economic Forum (2021). The Future of Financial Infrastructure.
18. IMF (2022). Digital Currencies and the Future of Money.
19. Uzbekistonda qabul qilingan "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi" (2023).
20. Blockchain va kriptovalyutalar bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar (2024).
21. European Central Bank (2022). Central Bank Digital Currencies: Opportunities and Challenges.